

**OMAD VA OMADSIZLIK TUSHUNCHALARINING TURLI  
DAVLARDAGI O'ZIGA XOS TALQINI**

*Obidova Go'zalxon Ma'ruffon qizi*

*Andijon Davlat Universiteti doktoranti*

Omad va omadsizlik tushunchalarining tarixiy rivojlanishi turli madaniyatlar va davrlarni o'z ichiga oladi, bu tushunchalarning kelib chiqishi qadimgi sivilizatsiya va e'tiqodlarda namoyon bo'ladi, hamda turlicha talqin qilinadi. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Yunoniston va Rim eng qadimgi mamlakatlar hisoblanib, ular haqida ma'lumot beruvchi manbalar bu millatlar aholisi uchun omad judayam yaqin tushuncha ekanligini ko'rsatadi. Hattoki, Misrda omad va himoya xudosi, Thoth va Iris, Yunonistonda Tixe (Tyche), Rimda esa Fortuna nomi bilan mashhur bo'lgan xudolari bo'lib, ular odamlar orasida hurmatga sazovor bo'lgan. Mesopotomiyada omadni bashorat qilish uchun folbinlikka tayanilgan. Ular tabiat hodisalarini masalan, samoviy hodisalarni xudoning alomatlari sifatida talqin qilgan va omadsizlikni oldini olish hamda omadni jalb qilish uchun turli qurbonliklar qilishgan. Misrda esa omadni nazorat qiladigan xudolar borligiga e'tiqod qilishgan, va omadni jalb qilish uchun xudoga yoqadigan ishlar qilishga harakat qilishgan, turli omad xudolarining ramzi bo'lgan tumorlar taqib yurishgan. Qadimgi Rim va Yunonistonda ham omadni chaqirish uchun turli xudolarga e'tiqod qilingan hamda turli marosimlar o'tkazilgan. Qadimgi dunyo aholisining e'tidoqlaridan biri hisoblangan "fetishizm"da u yoki bu buyumlar omad keltirishiga yoxud balo-qazoni daf qilishiga ishonilgan [1]. Bundan tashqari Aristotel kabi Yunon faylasuflari omadning inson hayotidagi roli haqida turli baxs va munozaralar yuritgan. Aristotel omadni inson harakatlari va natijalariga ta'sir etuvchi tashqi sabab deb hisoblagan. [2]. O'rta asrlarda Yevropada Xristianlikning paydo bo'lishi omadning ilohiy inoyat, Xudoning marhamati sifatida, omadsizlikni esa gunohlar uchun ilohiy jazo sifatida talqin qilinishiga sabab bo'ldi. Uyg'onish va ma'rifat davrida ratsionalizm va ilmiy tushuntirishlar yomonga siljish yuz berdi. Omadga bo'lgan ishonch

saqlanib qolgan bo'lsada, ammo shubhalar kuchaydi va sabablarni tushunishga intilish boshlandi. Bu davrda ihtimollik nazariyasi, statistika fanlari yordamida tajribalar o'tkazilib omad va omadsizlikni mohiyatini chuqurroq anglab yetishga urinishlar ortdi. 19-20 asrlarda psixologiya sohasi omadning kognitiv va hissiy jihatlarini o'rgana boshladi. Bu orqali bir necha xulosalarga kelinib inson hayotida omadni jalb qilish uchun psixologik yordamlar joriy etila boshlandi. [3].

Omad va omadsizlik tushunchalari har bir millat, jamiyat, yosh, jins, irq va kichik guruhlar, yosh doiralarida o'ziga xos farqlanadi.

### **References:**

A.S. Sagdullayev, V.A. Kostetskiy. (2022). Qadimgi dunyo tarixi. O'zbekiston ta'lim markazi.

Irwin, T. (1990) Aristotle's First Principles, Oxford: Clarendon Press.

<https://en.m.wikipedia.org/wiki/Luck>